

Abdimominova Adiba Ne'matullo qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti :Matematika yònalishi

3-kurs, 4-M guruh talabasi +998975317505

abdimominovaadiba@gmail.com

Shomurotov Ulug'bek Melikboboyevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti : Pedagogika va

psixologiya kafedrasи o'qituvchisi (maqola ilmiy rahbar)

ulugbekshomurotov986@gmail.com

Annotatsiya / Аннотация / Annotation:

Ushbu maqolada psixologiya fanining predmeti, uning asosiy maqsadlari va vazifalari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Psixologiya inson tafakkuri, ruhiy jarayonlari va xulq-atvorini o'r ganadigan fan sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Unda inson shaxsi, ruhiy xususiyatlari va psixologik jarayonlarni tahlil qilishning nazariy va amaliy jihatlari ko'rib chiqiladi.

В данной статье подробно рассматриваются предмет, основные цели и задачи психологии. Психология изучает мышление человека, психические процессы и поведение, что делает её важной наукой. Рассматриваются теоретические и практические аспекты анализа личности человека, её психических характеристик и процессов.

This article provides detailed information about the subject, main goals, and objectives of psychology. Psychology, as a science, plays an essential role in studying human thinking, mental processes, and behavior. It examines theoretical and practical aspects of analyzing human personality, mental characteristics, and processes.

VOLUME-3, ISSUE-2

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords:

psixologiya, psixik jarayonlar, ruhiy holatlar, shaxs, ilmiy tahlil

психология, психические процессы, психические состояния, личность, научный анализ

psychology, mental processes, mental states, personality, scientific analysis

Kirish

Psixologiya – inson ruhiyatini, xulq-atvorini va ongini o‘rganadigan fan bo‘lib, u insonning fikrlashi, hissiyotlari va harakatlarini tushunishga qaratilgan.Inson ongi, histuyg‘ulari va xulq-atvori azaldan insoniyatni qiziqtirib kelgan. Qadimgi faylasuflar, jumladan, Aristotel va Platon inson ruhiy olamini anglashga intilib, uning mohiyatini tushuntirishga harakat qilishgan. Zamon o‘tishi bilan bu qiziqish ilmiy asosga ega bo‘lib, psixologiya mustaqil fan sifatida shakllandi. Bugungi kunda psixologiya inson ruhiy jarayonlarini ilmiy jihatdan o‘rganadigan eng muhim fanlardan biri hisoblanadi.Psixologiya so‘zi yunoncha "psyche" (ruh) va "logos" (ta’limot) so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, "ruhiyat haqidagi ta’limot" degan ma’noni anglatadi. Avvaliga psixologiya inson ruhini tushunishga qaratilgan falsafiy yo‘nalish sifatida shakllangan bo‘lsa, keyinchalik eksperimental va amaliy tadqiqotlar asosida mustaqil ilmiy fan sifatida rivoj topdi. Bugungi kunda psixologiya insonning ruhiy jarayonlarini, shaxsiy xususiyatlarini va ijtimoiy muhitdagi xulq-atvorini o‘rganib, turli hayotiy muammolarni tushuntirish va yechishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.Zamonaviy psixologiya inson ongingin sirlarini o‘rganish bilan birga, uning ongsiz jarayonlari, hissiyotlari, idrok qilish tizimi va xulq-atvor motivlarini ham chuqr tahlil qiladi. Ayniqsa, insonning ichki kechinmalari, qaror qabul qilish jarayoni, hayotiy tajribalar natijasida shakllanuvchi odatlar va motivatsion omillar psixologiyaning asosiy tadqiqot ob’ektlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu fan nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balki amaliy jihatdan ham inson hayotining turli jabhalarida qo‘llaniladi. Ta’lim, tibbiyot, biznes, sport va kundalik hayotda psixologik bilimlardan keng foydalilanadi. Masalan, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilim olish qobiliyatlarini yaxshilash, tibbiyotda ruhiy kasallikkarni aniqlash va davolash, biznesda esa inson resurslarini boshqarish va mijozlar bilan samarali muloqot qilishda psixologiya muhim rol o‘ynaydi.Shu boisdan, psixologiya inson hayotining barcha jabhalariga ta’sir qiluvchi fundamental fan bo‘lib, uning o‘rganilishi nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ананьев Б. Г. Человек как предмет познания. – М.: Наука, 1968.
2. Выготский Л. С. Психология развития. – М.: Педагогика, 1984.
3. Atkinson R. C., Smith E. E., Bem D. J. Introduction to Psychology. – Harcourt Brace College Publishers, 1999.
4. Немов Р. С. Психология. В 3-х книгах. – М.: Владос, 1995.